



## THE PRACTICE OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN CIVIL PROCEDURE IN COUNTRIES OF THE CONTINENTAL LEGAL SYSTEM

*Muxlisa Marufovna Urinboyeva*

*Independent researcher at the law  
enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan*

*E-mail: [m.urunboyeva@gmail.com](mailto:m.urunboyeva@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** continental legal system, Romano-Germanic law, codification, hierarchy of legal sources, civil procedural law, active process, active role of the judge, digital justice, artificial intelligence.

**Received:** 11.04.26

**Accepted:** 12.04.26

**Published:** 13.04.26

**Abstract:** This article analyzes the historical development of the continental (Romano-Germanic) legal system, its main characteristics, and the role of civil procedural law within this system. It substantiates that the codified nature of continental law, the strict hierarchy of legal sources, the systematic division of law into branches, and the subsidiary role of judicial precedent serve as key factors ensuring legal certainty and stability in civil proceedings. Within the framework of the “active process” concept inherent in the continental model, the article examines the court’s role in case preparation, evidence gathering, and fact-finding, as well as the limitation of judicial discretion by law and its impact on fair trial guarantees.

---

## KONTINENTAL HUQUQ TIZIMI MAMLAKATLARI FUQAROLIK PROTSESSIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

*Muxlisa Ma’rufovna Urinboyeva*

*O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza  
qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

*[m.urunboyeva@gmail.com](mailto:m.urunboyeva@gmail.com)*

*Toshkent, O‘zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** kontinental huquq tizimi, romano-german huquqi, kodifikatsiya, huquq manbalari ierarxiyasi, fuqarolik protsessual

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kontinental (romano-german) huquq tizimining tarixiy shakllanishi, asosiy belgilari

huquq, faol protsess, sudyaning faol roli, raqamli sudlov, sun'iy intellekt.

va fuqarolik protsessual huquqning ushbu tizimdagi o'rni tahlil qilingan. Kontinental huquqning kodifikatsiyaga tayanuvchi tabiati, huquq manbalarining qat'iy ierarxiyasi, huquq tarmoqlarining tizimli ajratilishi hamda sud pretседentining qoida tariqasida yordamchi ahamiyatga egaligi fuqarolik protsessida huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida asoslanadi. Shu bilan birga, kontinental modelga xos "faol protsess" konsepsiyasi doirasida sudning ishni tayyorlash, dalillarni to'plash va faktlarni aniqlashdagi roli, sudya ixtiyorining qonun bilan cheklanishi hamda bu holatning adolatli sudlov kafolatlariga ta'siri yoritiladi.

---

## ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ СТРАН КОНТИНЕНТАЛЬНОЙ ПРАВОВОЙ СИСТЕМЫ

*Мухлиса Маъруфовна Уринбоева*

*Независимый исследователь*

*правоохранительных Академии Республики Узбекистан*

*E-mail: [m.urunboyeva@gmail.com](mailto:m.urunboyeva@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** континентальная правовая система, романо-германское право, кодификация, иерархия источников права, гражданское процессуальное право, активный процесс, активная роль судьи, цифровое правосудие, искусственный интеллект.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы историческое становление континентальной (романо-германской) правовой системы, её основные признаки и место гражданского процессуального права в данной системе. Обосновывается, что кодификационный характер континентального права, строгая иерархия источников права, системное деление права на отрасли, а также вспомогательная роль судебного прецедента выступают факторами обеспечения правовой определённости и стабильности в гражданском процессе. Наряду с этим в рамках концепции «активного процесса», присущей континентальной модели, раскрывается роль суда в подготовке дела, собирании доказательств и установлении фактов, а также ограничение судебного усмотрения

**Kirish.** Kontinental huquq tizimi jahon huquqiy tizimlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallab, huquqshunoslik nazariyasida u romano-german huquq tizimi nomi bilan ham keng qo‘llaniladi. Mazkur huquq tizimining shakllanishi kontinental Yevropa hududida rim huquqi qoidalari, katolik huquq normalari hamda mahalliy huquqiy odatlar ta‘sirida yuzaga kelgan [1].

Kontinental huquq tizimining asosiy xususiyatlariga huquq normalarining kodifikatsiyalashtirilgan shaklda tizimlashtirilishi, asosiy huquqiy tushunchalarning yagona va barqaror tizimi mavjudligi, huquq manbalarining qat‘iy ierarxik tuzilishi, shuningdek huquqning mustaqil tarmoqlarga ajratilishi kabilar kiradi [2]. Ushbu tizimda qonun huquqning asosiy manbai hisoblanib, sud pretsedenti, qoida tariqasida, yordamchi ahamiyatga ega.

Kontinental huquq tizimi doirasida huquq tarmoqlarga bo‘linadi, xususan, konstitutsiyaviy, fuqarolik, oilaviy, jinoyat, ma‘muriy va boshqa huquq sohalari ajratiladi. Bu esa huquqiy tartibga solishning tizimli va izchil amalga oshirilishini ta‘minlaydi hamda huquqni qo‘llash amaliyotida huquqiy aniqlik va barqarorlikka xizmat qiladi [3]. Bu tizim Fransiya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlarda shakllanib, keyinchalik Yevropa Ittifoqi va jahon bo‘ylab keng tarqalgan.

Kontinental huquq tizimida fuqarolik protsessual huquq mustaqil huquq tarmog‘i sifatida shakllangan bo‘lib, u fuqarolik, oilaviy, mehnat va boshqa xususiy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sud tartibida ko‘rib chiqish va hal etishni tartibga soladi. Mazkur tizimda fuqarolik protsessi shaxslarning buzilgan yoki nizoli huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning asosiy huquqiy mexanizmi hisoblanadi [4].

Kontinental huquq tizimiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biri fuqarolik protsessining qat‘iy qonun bilan tartibga solinganligidir. Sud ish yurituvi qonunchilikda aniq belgilangan protsessual qoidalar asosida amalga oshiriladi, sudning ixtiyoriy harakat qilish imkoniyati esa cheklangan bo‘ladi. Bu holat sud amaliyotida huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kontinental huquq tizimida fuqarolik protsessida sud — faqat hakam emas, balki ishni faol tarzda boshqaradigan mustaqil organ hisoblanadi. Bu taklif etilgan “faol protsess” modelida sudya dalillarni to‘plash, guvohlarni eshitish va faktlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi [5]. Bu esa sudyaning qarori faqat taraflar taqdim etgan dalillarga asoslanmasligini ta‘minlaydi, natijada ishda haqiqatni topish va to‘liq tekshirish kafolatlanadi [6].

Yuqorida ta'kidlanganidek, kontinental huquq qat'iy kodifikatsiyaga asoslangan bo'lib, u shaxs huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi hamda sun'iy intellektni tartibga solishda alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizim ilmiy va deduktiv yondashuv bilan tavsiflanadi: huquq yozma kodekslar va qonunlar orqali formallashtiriladi, bu esa GDPR (Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi umumiy reglament) va "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonun kabi aniq va oldindan bashorat qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Fuqarolik huquqida kodifikatsiyaning muhim ahamiyati qonunlarning ochiq-oshkoraligi, izchilligi va abstrakt xususiyatini ta'minlaydi, bu esa sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga solishning asosiy elementlari hisoblanadi. Bunday yondashuv asosiy huquq va erkinliklarni himoya qilishga alohida urg'u beradi.

Texnologiyalarning jadal rivojlanishi va sun'iy intellektning hayotning turli sohalariga, jumladan odil sudlov tizimiga joriy etilishi natijasida, sun'iy intellektni fuqarolik protsessining sub'ekti sifatida huquqiy jihatdan identifikatsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Sun'iy intellektning huquqiy maqomi, uning imkoniyatlari va cheklovlari, shuningdek, fuqarolik sud ish yuritish doirasida yuridik xizmatlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va hatto sud muhokamalarida qaror qabul qilishda qo'llanilishi bilan bog'liq masalalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Yuridik adabiyotlarda ham sun'iy intellektning o'rni va uning fuqarolik sud ish yurituviga ta'sirini o'rganish hozirgi kunda faol tadqiq etilayotgan ilmiy muammo hisoblanishi, zero uning joriy etilishi keng qamrovli tus olayotganligi qayd etilmoqda [7].

Sun'iy intellekt — inson aqliy faoliyatini talab etuvchi vazifa-larni, xususan o'qish, mulohaza yuritish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni bajarishga qodir bo'lgan tizimdir. Shunday ekan, fuqarolik sud ishlarini yuritishda sun'iy intellekt ishga oid ma'lumotlarni tahlil qilish, qabul qilinadigan sud qarorlari (ajrim, sud hal qiluv qarorilari)ning yakuniy natijalarini bashorat qilish, shuningdek, kundalik va takrorlanuvchi operatsiyalarni avtomatlashtirish uchun qo'llanilishi mumkin.

Zamonaviy dunyoda huquqiy axborot hajmi geometrik o'sib borayotgani sababli, huquqshunoslar juda katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash, ilmiy izlanishlar olib borish va huquqiy pretsedentlarni tahlil qilish zaruratiga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, yurisprudensiya sohasida sun'iy intellektdan foydalanish mazkur vazifalarni yanada samarali va aniq bajarish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Sun'iy intellekt (SI) to'g'risidagi qonun zamonaviy huquqiy makonda yuz berayotgan bahs-munozaralarning eng muhim mavzularidan biriga aylanib bormoqda. Bu kabi qonunni yaratish

mamlakatda xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirish maqsadida SI dan foydalanishni huquqiy tartibga solish zaruriyati bilan bog'liqdir. Ko'plab mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar SI ni nazorat qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini ishlab chiqmoqdalar, ayrimlarida bu kabi qonun amal qiladi. Quyida bu bo'orda muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan Yevropa Ittifoqi va AQSh tajribasiga to'xtalib o'tamiz.

2022 yil dekabrda tasdiqlangan "Raqamli o'n yillik" strategiya dasturi Yevropa Ittifoqining 2030 yilgacha sun'iy intellekt (SI) rivojlanishiga oid pozitsiyasini to'ldiruvchi hujjat bo'ldi [8]. Dasturda Yevropa Ittifoqining "yashil" dasturiga ustuvorlik berilgan va SI texnologiyalari, shuningdek, boshqa texnologiyalarning zararli chiqindilarni qisqartirish (Yevropa Ittifoqining ekologik dasturi - European Green Deal doirasida) va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim o'rin tutgani ta'kidlangan.

Dasturda, shuningdek, 2030 yilga borib Yevropa Ittifoqidagi 75% tashkilotlar o'z operatsiya jarayonlariga SI ni joriy qilishlari kerakligi ko'rsatilgan strategik maqsad belgilangan [9].

Xalqaro darajada sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish borasida shuni ta'kidlash kerakki, 2023 yil 14 iyunda Yevroparlament "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonun (Artificial Intelligence Act) loyahasini deputatlarning 499 ovozi bilan qabul qildi, 28 ovoz qarshi, 93 ovoz betaraf qoldi [10]. Mazkur Qonun sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga solishda dunyoning birinchi umumiy va keng qamrovli qonun hujjati bo'ldi, desak muborag'a bo'lmaydi [11].

Sun'iy intellektni tartibga soluvchi birinchi kompleks qonunchilik hujjati sifatida ushbu Qonun sun'iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga qarab quyidagi toifalarga ajratdi:

- yuqori xavfli tizim;
- cheklangan xavfli tizim;
- minimal xavfli tizim.

Yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimi qat'iy talablarga javob berishi va majburiy sertifikatlanishi talab etiladi. Shuningdek, Qonunda asosiy e'tibor kamsitish, ayirmachilikning oldini olish va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Masalan, jamoat joylarida biometriya orqali shaxsni aniqlash uchun sun'iy intellektdan foydalanish cheklanadi yoki taqiqlanadi. Sun'iy intellekt ishlab chiquvchilari va foydalanuvchilari xatolar va sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan zarar uchun to'liq javobgar bo'ladi. Sun'iy intellekt tomonidan qayta ishlangan barcha tasvirlar, audio yoki videoyozuvlar («dipfeyklar») tegishli belgiga ega bo'lishi talab qilinadi [12].

Mazkur Qonun bilan odamlarning xavfsizligi uchun qabul qilinmaydigan xavf darajasiga ega sun'iy intellekt tizimlari taqiqlanadi, masalan, ijtimoiy baholash (odamlarni ijtimoiy odatlari

yoki shaxsiy xususiyatlari asosida tasniflash) shular jumlasidandir. Shuningdek, sun'iy intellekt ishlatishni taqiqlanishi kerak bo'lgan quyidagi ro'yxat e'lon qilindi:

- ommaviy joylarda "onlayn" biometrik aniqlash tizimlari;
- jinoyatlarning jiddiyligi uchun faqat sud ruxsati bilan, huquqni muhofaza qilish organlari uchun "post" biometrik aniqlash tizimlari;
- hassos xususiyatlardan foydalangan biometrik tasniflash tizimlari (masalan, jins, irq, millat, grajdanlik, din, siyosiy yo'nalish);
- profiling, joylashuv yoki o'tmishdagi jinoiy harakatlarga asoslangan politseylik prognozlash tizimlari;
- qonunchilik, chegara boshqaruvi, ish joyi va ta'lim muassasalarida his-tuyg'ularni aniqlash tizimlari;
- internetdan yoki CCTV kameralaridan yuzlarni aniqlash uchun norostlik bilan tasvirlarni olish (inson huquqlarini va maxfiyat huquqini buzish) [13].

Bir so'z bilan aytganda, yangi qoidalar fuqarolarning huquqlariga tahdid soladigan ba'zi sun'iy intellekt ilovalarini taqiqlaydi. Taqiqlangan ma'lumotlar bazalarini yaratish uchun internetdagi yuz tasvirlari va videokuzatuv kameralari tasvirlaridan foydalanadigan biometrik identifikatsiya tizimlarini o'z ichiga oladi, ishxona va maktablardagi his-tuyg'uni aniqlash tizimlari, "ijtimoiy reyting" tizimlari va inson xatti-harakatlarini boshqaradigan yoki odamlarning zaif joylaridan foydalanadigan sun'iy intellekt ham taqiqlanadi [14].

Sun'iy intellekt bo'yicha xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, masalan, kontinental tizimga ega Fransiyada so'nggi yillarda sud-huquq tizimi sud jarayonlariga ma'lum darajada raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan umumiy tendensiyaga muvofiq ravishda rivojlanib bormoqda.

Fuqarolik sudlov tizimining raqamlashtirilishi ayni paytda Fransiya Fuqarolik protsessual kodeksi (Code de procédure civile)da qisman huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, mazkur Kodeksning 748-1–748-9-moddalarida barcha sudlar oldida elektron aloqa vositalaridan foydalanish tartibini belgilovchi maxsus normalar belgilangan [15]. Ushbu normalar sud ishlarida ishtirok etuvchi tomonlarning shaxsini aniq identifikatsiya qilish, almashilayotgan hujjatlarning yaxlitligi va maxfiyligini ta'minlash hamda texnik nosozliklar xavfini kompensatsiya qilish maqsadida protsessual muddatlarni uzaytirish imkoniyatini berishga qaratilgan.

Elektron aloqa vositalaridan foydalanish darajasi sud tizimidagi turli sub'ektlar (ya'ni sudlar, advokatlar va taraflar) o'rtasida farq qiladi. Sud organlari tomonidan (xususan, sud tribunallari, apellyatsiya sudlari va ayrim tijorat sudlari) eng ko'p qo'llanilayotgan vosita advokatlar uchun

mo'ljallangan virtual xususiy tarmoq — RPVA (Réseau privé virtuel des avocats) hisoblanadi. Ushbu tizim sudlarga elektron protsessual hujjatlarni qabul qilish va advokatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri elektron aloqa o'rnatish imkonini beradi.

Advokatlar nuqtai nazaridan esa, protsessual hujjatlar sudga va boshqa taraflarga aynan RPVA orqali elektron shaklda taqdim etiladi va yetkaziladi.

Bundan tashqari, advokatlar uchun mo'ljallangan boshqa raqamli va texnik vositalar ham jadal rivojlanib bormoqda. Xususan, katta hajmdagi elektron ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish uchun elektron dalillarni topish (e-discovery) vositalaridan foydalanish amaliyoti kengaymoqda. Shu munosabat bilan Fransiyada ayrim startaplar ochiq ma'lumotlar bozoriga kirib kelib, yuridik firmalarga yuqori samaradorlikka ega ma'lumotlar bazalarini taklif etmoqda. Masalan, "Doctrine" platformasi sud amaliyoti va huquqiy ma'lumotlarning keng qamrovli bazasini taqdim etib, yuridik firmalar uchun intuitiv qidiruv tizimini yaratish orqali ish samaradorligini oshirish va vaqtni sezilarli darajada tejash imkonini beradi [16].

Fransiyada shuningdek, nizolashuvchi taraflar ham davlat tomonidan yaratilgan maxsus veb-saytlar orqali o'z huquqlari to'g'risida axborot olish imkoniga ega. Advokat ishtirok etishi majburiy bo'lmagan fuqarolik (shartnomaviy va oilaviy) hamda tijorat ishlari bo'yicha sudlov jarayonlariga raqamlashtirilgan kirish imkoniyati ham ta'minlangan [17].

Shu jihatdan, 2019 yil 11 apreldan boshlab Savdo va kompaniyalar reestrída ro'yxatdan o'tgan har qanday kompaniya rahbari yoki tadbirkor uchun tijorat sudiga murojaat qilish imkonini beruvchi raqamli sud (Tribunal Digital) faoliyat yuritmoqda [18].

**Tahlil va natijalar.** 2007 yilda tashkil etilgan Infogreffe platformasi orqali tadbirkorlarga o'z korxonalarining korporativ faoliyati bilan bog'liq barcha rasmiy jarayonlarni onlayn tarzda amalga oshirish imkonini bergan holda raqamlashtirish sohasida ilk qadamlarni qo'ygan tijorat sudlari kotiblari, Raqamli sud platformasini ishga tushirish orqali raqamlashtirish jarayonida yangi, sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarildilar.

Raqamli sud — Fransiya hududida faoliyat yuritayotgan 134 ta tijorat sudiga kirish imkonini beruvchi yagona elektron portal hisoblanadi. Ushbu portal orqali yuqorida ta'kidlanganidek, korxonah rahbari vakolatli tijorat sudiga elektron shaklda, sodda, qulay va xavfsiz tarzda murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur maqsadda Tijorat sudlari kotiblarining Milliy kengashi hamda Infogreffe hamkorligida Savdo va kompaniyalar reestrída ro'yxatdan o'tgan har bir tadbirkor uchun maxsus raqamli shaxsiyat - «Monidenum» ishlab chiqildi. Ushbu shaxsiy raqamli identifikator orqali korxonah rahbari Raqamli sud platformasiga kirib, o'z shaxsiy elektron kabinetiga ulanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanuvchi shaxsiy boshqaruv paneli orqali turli toifadagi protsessual harakatlarga kirish imkoniga ega bo'ladi. Jumladan, da'vo arizasi bilan murojaat qilish (asosiy tartibda yoki tezkor — référé tartibida), jamoaviy ish yuritish masalalari, to'lovni undirish haqidagi buyruq chiqarishni so'rab murojaat qilish, qarshilik bildirish to'g'risidagi ariza, sud raisiga murojaat qilish va boshqa protsessual harakatlar amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, foydalanuvchi o'z ishiga oid raqamli ish materiallarini ko'rish, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni elektron tarzda yuborish, ish yuritish jarayonini kuzatib borish hamda yakuniy sud qarorlarini elektron shaklda qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu tariqa, Raqamli sud tijorat sudiga murojaat qilishning yangi, zamonaviy va amaliy usulini joriy etib, an'anaviy qog'oz shaklida murojaat qilish yoki shaxsan sud binosiga borish orqali murojaat qilish usullarini to'ldiruvchi qo'shimcha protsessual imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli sudni tashkil etish quyidagi uchta asosiy maqsadga xizmat qiladi:

- tadbirkorlik muhitidagi raqamlashtirish va demateriallashtirish jarayonlari bilan belgilanayotgan o'zgarishlarga mos ravishda tijorat odil sudlovini zamonaviylashtirish;
- xavfsiz huquqiy muhitda sud jarayonlarini tezlashtirish orqali korxonalar rahbariga o'z faoliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish imkonini berish;
- korxonalarining moliyaviy inqirozga uchrashi va faoliyati to'xtab qolishining oldini olish.

Darhaqiqat, ANCR — Qarzlarni undirish va tijorat ma'lumotlari bilan shug'ullanuvchi milliy idoralar uyushmasining 2018 yilgi hisobotiga ko'ra, har yili o'nlab milliard yevro miqdoridagi mablag'lar korxonalar tomonidan o'z huquqlarini himoya qilishdan voz kechish natijasida yo'qotilmoqda. Ayniqsa, to'lovlarni kechiktirish yoki to'lov majburiyatlarini bajarmaslik holatlarida bunday vaziyat kichik va o'rta korxonalar uchun o'ta jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Infogreffe prezidenti Dyodonne Mpukining ta'kidlashicha, tijorat sudlari kotiblarining maqsadlari bu bilan cheklanib qolmaydi. Kelgusida Monidenum raqamli identifikatori korxonalar rahbarlariga uchinchi shaxslarga tegishli platformalarda ham o'z shaxsini tasdiqlash imkonini berishi, shu orqali kengaytirilgan onlayn xizmatlar to'plamiga kirishni ta'minlashi ko'zda tutilmoqda. Jumladan, tijorat sudlari kotiblari korxonalar rahbarlari uchun maxsus xavfsiz shaxsiy elektron makon yaratish masalasini muhokama qilmoqdalar. Ushbu makonda tadbirkorlar o'zlarining K-bis ko'chirmasi, faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari, sud xabarnomalari hamda umumiy tarzda kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha demateriallashtirilgan axborotlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

Shu bilan birga, Raqamli sud hamda Infogreffe tomonidan e'lon qilingan mazkur tashabbuslarni PACTE qonunida nazarda tutilgan yagona elektron "yagona darcha"ni joriy etish jarayoni bilan qanday uyg'unlashtirish masalasi ochiq qolmoqda. Mazkur ikki yo'nalishning samarali integratsiya qilinishi korxonalar uchun haqiqatan ham to'liq va barqaror raqamli ekotizimni shakllantirish imkonini berishi mumkin.

Fransiya fuqarolik sudlov tizimida ayni paytda qo'llanilayotgan raqamlashtirishning eng asosiy va eng to'liq shakli RPVA (advokatlar uchun mo'ljallangan virtual xususiy tarmoq) hisoblanadi [19]. 2005 yilda ushbu kasb egalari faoliyatini yengillashtirish maqsadida yaratilgan mazkur tarmoq sud organlari bilan o'zaro munosabatlarda protsessual harakatlarni demateriallashtirishga [20] qaratilgan xavfsiz axborot tizimi bo'lib, u advokatlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

sud va boshqa taraflarning vakillari bilan elektron shaklda muloqot qilish;

protsessual hujjatlar hamda dalillarni elektron tarzda taqdim etish;

ayrim protsessual harakatlarni amalga oshirish (masalan, da'vo arizasini topshirish, taraf vakili sifatida ro'yxatdan o'tish va h.k.);

umuman olganda, butun sud jarayonini elektron tarzda kuzatib borish [21].

Advokatlar RPVA tizimiga "clé e-barreau" yoki "clé RPVA" deb ataluvchi maxsus USB kalit orqali ulanadilar.

RPVA vaqt va samaradorlik nuqtai nazaridan ko'plab afzalliklarga ega. Jumladan, u har bir protsessual majlisda yozma taqdimotlarning qog'oz nusxalarini topshirish zaruratini bartaraf etadi va natijada faqat tomonlar navbatma-navbat o'z yozma bayonotlarini taqdim etish maqsadida o'tkaziladigan protsessual majlislar uchun sud binosiga borish ehtiyojini yo'qqa chiqaradi.

2019 yil 23 martda qabul qilingan qonunga muvofiq va 2021 yil 1 iyuldan kuchga kirgan tartibga asosan RPVAdan foydalanish doirasi kengaytirildi. Endilikda sud tribunaliga (birinchi instansiya sudi) da'vo arizasi kiritishni rejalashtirayotgan advokatlar uchun birinchi sud majlisi sanasini oldindan tanlash majburiyati joriy etildi. Biroq bu jarayon advokat tomonidan da'vo arizasi loyihasini oldindan sudga elektron tarzda yuborishni talab qiladi (Fuqarolik protsessual kodeksining 751-moddasi) [22]. Ushbu mexanizm orqali ish yuritishni boshlash jarayoni raqamlashtirilib, sudga qo'ng'iroq qilish yoki da'vo arizasining qog'oz nusxasini taqdim etish zarurati bartaraf etildi.

So'nggi yillarda Advokatlar milliy kengashi faoliyati natijasida RPVA tizimi sezilarli darajada takomillashtirildi. Xususan, ma'lumotlarni saqlash hajmi 150 MBdan 5 GBgacha oshirildi, elektron kalendar orqali sud majlislari sanalari aks ettirila boshlandi, interfeys

foydalanuvchi uchun yanada qulay va intuitiv shaklga keltirildi, shuningdek, “e-barreau-mobile” mobil ilovasi orqali advokatlarga ish yurituv holati bo‘yicha real vaqt rejimida xabarnomalar yuborish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, RPVA tizimi asosan sud tribunallari va apellyatsiya sudlarida qo‘llaniladi. Tijorat sudlarida esa mazkur tizimdan foydalanish jarayoni hali sekinlik bilan joriy etilmoqda.

Fuqarolar uchun esa advokat ishtiroki majburiy bo‘lmagan ish toifalarida to‘liq demateriallashtirilgan elektron platformalarni yaratish jarayoni izchil rivojlanib bormoqda.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Raqamli sud ana shu rivojlanishlarning eng muhim namunasi. 2019 yil 11 aprelda Tijorat sudlari kotiblarining Milliy kengashi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu raqamli sud Fransiyadagi 134 ta tijorat sudiga kompaniya rahbarlari va tadbirkorlar uchun sodda va xavfsiz tarzda kirish imkonini yaratdi.

Bu maqsadda Savdo va kompaniyalar reestrda ro‘yxatdan o‘tgan har bir tadbirkorga “MonIdenum” deb nomlangan maxsus raqamli identifikatsiya vositasi taqdim etildi. Ushbu shaxsiy raqamli kalit orqali tadbirkor raqamli sud portaliga kirishi va o‘z shaxsiy elektron makonidan foydalanishi mumkin. Platforma doirasida foydalanuvchi maxsus boshqaruv paneli orqali turli protsessual harakatlarga (masalan, da’vo arizasi, tezkor ish yuritish, jamoaviy ish yuritish, to‘lovni undirish buyrug‘ini so‘rash, qarshilik bildirish, sud raisiga murojaat qilish), ish materiallarining raqamli jamlanmasini ko‘rish, tasdiqlovchi hujjatlarni yuborish hamda sud qarori chiqarilguniga qadar ish yurituv jarayonini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur platforma amaliyotda hali keng qo‘llanilmayapti va faqat rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi.

Bundan tashqari, “Fuqaro portali” (Portail du citoyen) deb nomlangan elektron platforma fuqarolarga o‘z huquqlari, sudga murojaat qilish tartibi to‘g‘risida ma’lumot olish va ishlar yuritilishini kuzatish imkonini berishga mo‘ljallangan. Ushbu portal orqali ayrim toifadagi, advokat ishtiroki majburiy bo‘lmagan ishlar bo‘yicha sud jarayonlarini onlayn tarzda boshlash ham mumkin.

justice.fr va service-public.fr veb-saytlaridagi “France Connect” deb nomlangan xavfsiz identifikatsiya tizimi orqali har qanday kreditor to‘lovni undirish to‘g‘risida buyruq chiqarish tartibidan foydalanishi mumkin. Bu jarayon onlayn shaklni to‘ldirish orqali shartnomaviy qarzlarni undirishga imkon beruvchi ijro hujjatini olishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, 5 000 yevrogacha bo‘lgan qarzlarni bo‘yicha kreditorlar CREDICYS deb nomlangan, milliy sud ijrochilari palatasi tomonidan yaratilgan raqamli platforma orqali sud ijrochisini jalb etib, to‘lovni ta’minlash

choralarini ko'rishlari mumkin. Agar mazkur tartib samara bermasa, kreditor to'liq sud jarayonini boshlashi lozim bo'ladi.

2021 yil 4 yanvardan boshlab har qanday taraf justice.fr sayti orqali voyaga yetgan shaxslarni himoya qilish choralari bo'yicha vasiylik sudyasiga murojaat qilish, shuningdek, oila sudyasiga (nikohni bekor qilish, nikoh xarajatlarida ishtirok etish, ota-onalik huquqlari bilan bog'liq barcha masalalar va boshqalar) talablar kiritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu onlayn murojaat orqali da'vogar butun sud jarayonini demateriallashtirilgan platforma orqali davom ettirishga rozilik ham bildirishi mumkin.

Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi davrida hukumat maxsus dekret orqali barcha fuqarolik va tijorat ishlari bo'yicha virtual sud majlislarini o'tkazishga ruxsat berdi. Mazkur davrda Fransiyadagi 141 ta tijorat sudida «Tixeo» nomli milliy dastur orqali 700 dan ortiq masofaviy sud majlisi o'tkazildi [23].

Shu tariqa, pandemiya davrida videokonferensiya texnologiyalaridan foydalanish Fransiya huquq tizimining virtual sud majlislari sohasida muayyan darajada olg'a siljishiga xizmat qildi. Ayni paytda taraflar va ularning vakillari iltimosiga binoan sud majlislarini videokonferensiya orqali o'tkazish imkoniyati mavjud.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, virtual sud majlislarini o'tkazishga ruxsat berilgan bo'lsa-da, ular amalda kam qo'llaniladi. Tomonlar, advokatlar va sudyalalar, odatda, shaxsan ishtirok etiladigan sud majlislarini afzal ko'radilar yoki umuman majlis o'tkazmasdan, ishni faqat taraflarning yozma taqdimotlari asosida hal qilishni ma'qullaydilar.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Fransiya Fuqarolik protsessual qonuniga sun'iy intellekt bo'yicha maxsus normalari kiritilmagan. Shu bilan birga, sudlar sun'iy intellektni qo'llashda umumiy prinsiplar va milliy qonunlar asosida harakat qiladi. Masalan, sud hukmlari va qarorlar qabul qilishda faqat sudyaning vakolati bo'lishi lozim, sun'iy intellekt esa faqat yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi kerak. Sun'iy intellekt fuqarolik jarayonlarida ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, hujjatlarni tayyorlash, protsessual harakatlarni avtomatlashtirish uchun sinov rejimida kiritilmoqda (masalan, sud yig'ilishi materiallarini tuzish va qonun normalarini tegishli qoidalar bilan taqqoslash shular jumlasidandir).

Kontinental tizimga ega bo'lgan navbatdagi davlat bo'lmish Germaniya Federativ Respublikasida so'nggi o'n yillikda sud-huquq tizimida raqamlashtirish va sun'iy intellekt (Künstliche Intelligenz) texnologiyalarini joriy etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, fuqarolik protsessida (Zivilprozess) sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish sud yuklamasini

kamaytirish, protsessual samaradorlikni oshirish hamda sudlov sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlarning muhim qismi sifatida qaralmoqda.

Germaniyada fuqarolik protsessida sun'iy intellektni qo'llashning huquqiy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, Germaniya Asosiy Qonuni (Grundgesetz) sun'iy intellekt qo'llanilishiga bevosita bag'ishlangan norma-larni o'z ichiga olmasa-da, quyidagi konstitutsiyaviy tamoyillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Insonlarning daxlsizlik huquqi – inson qadr-qimmatini daxlsizdir, uni hurmat qilish va himoya etish - barcha davlat organlarining majburiya-tidir (GFR Konstitutsiyasining 1-moddasi). Shunday ekan, sud qarorlari ham inson qadr-qimmatini hurmat qilgan holda qabul qilinishi shart;

Qonuniy sudyaga bo'lgan huquqi – maxsus sudlarga yo'l qo'yilmaydi. Hech kim o'zining qonuniy sudyasidan mahrum etilishi mumkin emas (GFR Konstitutsiyasining 101-moddasi). Shunday qilib, ishni hal qilish vakolati faqat inson sudyaga tegishli;

Huquqiy davlat tamoyili – Germaniya Federativ Respublikasi — demokratik va ijtimoiy federativ davlat bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyat konstitutsiyaviy tartibga rioya etishi shart, ijro etuvchi va sud hokimiyati esa qonun va adolatga rioya etishga majburdir (GFR Konstitutsiyasining 20-moddasi) [24].

Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi (Zivilprozessordnung, ZPO)da sun'iy intellekt to'g'risida maxsus qoidalar mavjud emas. Ammo quyidagi normalar sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatini bilvosita belgilaydi:

- sudning ishni tayyorlashda faol roli (Germaniya FPKning 139-moddasi);
- ishni samarali tayyorlash vositalari (Germaniya FPKning 273-moddasi);
- dalillarni erkin baholash (Germaniya FPKning 286-moddasi) [25].

Germaniya fuqarolik protsessual huquqi doktrinasida ustun bo'lgan ilmiy qarashlarga ko'ra, sun'iy intellekt faqat yordamchi funksiyani bajarishi mumkin. Unga ko'ra, sun'iy intellekt protsessual hujjatlarni tahlil qilish, ishlarni guruhlash, muddatlarni nazorat qilish, tipik da'volarni aniqlash kabilarni amalga oshirishi mumkin.

Nemis huquqshunosi Hans Peter Bull to'g'ri ta'kidlaganidek, “algoritmik tizimlar sud qarorlarini qabul qilishda yordamchi bo'lishi mumkin, biroq ular hech qachon konstitutsiyaviy kafolatlangan inson sudyasining mas'uliyatini almashtira olmaydi [26]. Xuddi shunday fikr mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan biri, prof. M.M. Mamasiddiqov tomonidan ham yangragan. Uning fikricha, sun'iy intellekt tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar uchun javobgarlik inson zimmasida qoladi. Sun'iy intellekt tasodifan xatolik qilib qo'ysa ham, qaror qabul qiluvchi baribir inson, javob beradigan ham inson bo'lishi lozim [27].

Binobarin, sun'iy intellekt qanday yuksak darajaga chiqmasin, u adolatni ta'minlash sohasida insonning o'rnini almashtiruvchi emas, faqat adolatni ta'minlashda bir vosita bo'lib qolishi kerak.

Germaniyada fuqarolik ishlari bo'yicha sud elektron ish yuritish, da'vo arizalari va e'tirozlarni tahlil qilish, ommaviy da'volar (masalan, aviareyslarning kechikishi, iste'molchilarning talablari) kabi masalalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda [27].

Germaniyada fuqarolik sudlari yangi texnologiyalarga hech qachon yopiq bo'lmagan, aksincha ulardan sud jarayonlarining samaradorligini oshirishda muntazam foydalanishga harakat qilingan. Binobarin, kompyuterlar qudratining oshishi bilan ularning fuqarolik sudlarida qo'llanilishi ham kuchaya boshladi. Germaniyada 1982 yilda Shtuttgart ma'muriy sudida joriy etilgan avtomatlashtirilgan qarzdorlik tartibining yaratilishi sohada yangi texnik imkoniyatlar uchun muhim asos bo'ldi. U hozirgacha pul talablarini soddalashtirilgan tarzda undirish uchun samarali tartib sifatida xizmat qilib kelmoqda va Germaniya sud tizimining raqamlashuvini boshlanishi sifatida qaraladi. 1982–2022 yillar mobaynida AG Stuttgart Baden-Vyurtemberg federal yeri uchun markaziy qarzdorlik sudi sifatida taxminan 30 milliondan ortiq arizani avtomatlashtirilgan tarzda ko'rib chiqqan va 20 milliondan ziyod ijro hujjatlari chiqargan. Bu holat raqamli texnologiyalarning sud yuritish samaradorligiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi [28].

1990-yillarning oxiriga kelib elektron kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida elektron huquqiy aloqa (E-Rechtsverkehr) institutining shakllanishiga olib keldi. 2001 yildan boshlab Germaniyada sud hujjatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yuborish va qabul qilish imkoniyatlari qonunchilik darajasida mustahkamlandi [29]. Hozirgi kunda sudga yozma arizalar va ularga ilova qilingan hujjatlarni advokatlar hamda davlat organlari tomonidan elektron shaklda taqdim etish majburiy hisoblanadi (§ 130d ZPO). Bundan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun maxsus elektron fuqarolar va tashkilotlar pochta qutisi joriy etilgan bo'lib, u elektron hujjatlarni sudlarga yuborish hamda suddan qabul qilish imkonini beradi (BT-Drucksache 18/9416) [30].

Germaniyada sud ishlarini yuritish jarayonlarini raqamlashtirish masalasi 2005 yildan boshlab kun tartibiga qo'yilgan bo'lsa-da, asosiy maqsad sudlarda to'liq elektron ish yuritish tizimini joriy etish edi (§§ 298a, 299 Abs. 3 ZPO). Amaliyotda esa elektron ish yuritish faqat so'nggi yillarda Germaniyaning barcha federal yerlarida to'liq joriy etildi. Bu jarayon texnik qiyinchiliklar, moliyaviy xarajatlar va institutsional qarshiliklar bilan bog'liq bo'lgan [31].

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatning barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Grajdanklik sud jarayonlarida ham sun'iy intellektdan foydalanishning turli imkoniyatlari, masalan, ishlarni saralash, protsessual prognozlar, hujjatlarni tahlil qilish va sudya faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi masalalar keng muhokama qilinmoqda. Germaniyada bu sohada pilot loyihalar va "real laboratoriyalar" amalga oshirilmogda. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat ham mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratmogda. 2023 yil mart oyidan boshlab adliya vazirlarining federal va yerlar darajasidagi raqamlashtirish sammitlari muntazam o'tkazilib, sud tizimini yanada raqamlashtirish va sun'iy intellektdan ehtiyotkorona foydalanish bo'yicha islohot tashabbuslari kelishib olinmogda [32].

Shu bilan birga, nemis huquqshunosligida ustuvor pozitsiya shundan iboratki, sun'iy intellekt faqat yordamchi vosita bo'lishi mumkin, biroq u hech qachon konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlangan inson sudyasining mustaqilligi va mas'uliyatini almashtira olmaydi [33].

Germaniya huquqiy tizimida sun'iy intellekt sudyaning vositasi bo'lib qoladi, ammo hech qachon uning o'rnini bosuvchi sub'ektga aylanmaydi. Yakuniy qaror uchun javobgarlik mutlaqo inson zimmasida qolishi shart (Human-in-the-loop), zero faqat shu holatdagina huquqiy davlat tamoyillari talablariga to'liq rioya etiladi.

Kontinental huquq tizimi mamlakatlari fuqarolik protsessida sun'iy intellektdan foydalanish amaliyoti va tajribasi tahlilidan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkin:

birinchidan, FPKga "Sud ishlarini yuritishda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha cheklovlar" deb nomlangan alohida bob kiritish va sud qarorini avtomatik qabul qilishni qat'iy taqiqlash lozim.

Ikkinchidan, fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonlariga algoritmik shaffoflik standartlarini joriy etish lozim. Unga ko'ra, "Explainable AI" [34] talablarini joriy etish, taraflarga sun'iy intellektdan foydalanilgani haqida xabar berish majburiyatini qonuniylashtirish kabilar nazarda tutilishi kerak.

Uchinchidan, sudyalar uchun maxsus tayyorgarlik va malaka oshirish ishlarini amalga oshirish lozim. Unga ko'ra, sun'iy intellekt etikasi va algoritm xavflari bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, sudyalarda texnik vositalarga nisbatan tanqidiy yondashuvni ham shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kontinental huquq tizimi mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, fuqarolik protsessida sun'iy intellektdan foydalanish samaradorlikni oshirish imkoniyatini bersada, u inson sudyaning konstitutsiyaviy rolini almashtira olmaydi. Nemis huquqiy doktrinasida ustuvor yondashuv — sun'iy intellektni faqat yordamchi vosita sifatida, qat'iy huquqiy cheklovlar va inson nazorati

ostida qo'llashdir. Bu tajriba O'zbekiston fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish jarayoni uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Biroq kontinental huquq tizimida sun'iy intellektni fuqarolik protsesslariga integratsiya qilish — jamoatchilik, sudlar va qonunchilik amaliyoti uchun yangi imkoniyatlar ochadi. "Sun'iy intellekt to'g'risida" Qonunning qabul qilinishi natijasida, Yevropa mamlakatlarida bo'lgani kabi sun'iy intellektdan foydalanish tartibga solinadi, jamiyat va davlat hayotiga zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlar bilan kirib kelishi hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ta'minlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Давид Р., Жоффре-Спинози К. Основные правовые системы современности. — М.: Международные отношения, 1999.
2. Saidov A.X. Davlat va huquq nazariyasi. -T.: Adolat, 2018.
3. Керимов Д.А. Хукук назарияси. — М.: Норма, 2002.; Цвайгерт К., Кётц Х. Введение в сравнительное правоведение. — М.: Прогресс, 1998.
4. Малешин Д.Я. Гражданская процессуальная система и ее типы // Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 11. Право. 2011. № 1. – С. 53-72.
5. Emmett, Arthur R. "Towards the Civil Law?: The Loss of 'Orality' in Civil Litigation in Australia" [2003] University of New South Wales Law Journal (2003) 26(2) UNSW Law Journal 447 // <https://classic.austlii.edu.au/au/journals/UNSWLawJl/2003/36.html>
6. International Journal For Court Administration // <https://iacajournal.org/issues/14/files/14-78-PB.pdf>
7. Мельничук М. А., Савченко О. Н. Правовая идентификация искусственного интеллекта в гражданском процессе // Гуманитарные и юридические исследования. 2024. № 11 (1). -С. 136-143.
8. Decision (EU) 2022/2481 of the European Parliament and of the Council of 14 December 2022 establishing the Digital Decade Policy Programme 2030 // <https://eur-lex.europa.eu/eli/dec/2022/2481/oj>
9. SWD/2021/247 final COMMISSION STAFF WORKING DOCUMENT Accompanying the document Proposal for a Decision of the European Parliament and of the Council establishing the 2030 Policy Programme "Path to the Digital Decade" // <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A52021SC0247>
10. MEPs ready to negotiate first-ever rules for safe and transparent AI // <https://www.europarl.europa.eu/news/en/press-room/20230609IPR96212/meps-ready-to-negotiate-first-ever-rules-for-safe-and-transparent-ai>

11. Европарламент проголосовал за регулирующий искусственный интеллект закон // Коммерсантъ URL: <https://www.kommersant.ru/doc/6043737>
12. Европа парламенти сунъий интеллект тўғрисидаги қонунни қабул қилди // <https://kun.uz/kr/news/2024/03/13/evropa-parlamenti-suniy-intellekt-togrisidagi-qonunni-qabul-qildi>
13. MEPs ready to negotiate first-ever rules for safe and transparent AI // <https://www.europarl.europa.eu/news/en/press-room/20230609IPR96212/meps-ready-to-negotiate-first-ever-rules-for-safe-and-transparent-ai>
14. Европарламент сунъий интеллект тўғрисидаги дунёдаги биринчи қонунни маъқуллади // <https://www.gazeta.uz/uz/2024/03/13/artificial-intelligence/>
15. Code de procédure civile. Dernière mise à jour des données de ce code: 30 novembre 2025 // [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte\\_lc/LEGITEXT000006070716/](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070716/)
16. <https://promptfacile.fr/outils/doctrine/#:~:text=Gagnez>
17. Jean-Fabrice Brun. CMS Expert Guide to Digital Litigation in France // <https://cms.law/en/int/expert-guides/cms-expert-guide-to-digital-litigation/france>
18. Arnaud Raynouard, Vanessa Makhoul. Le Tribunal Digital: vers une modernisation de la justice commerciale. Numérique 04 juin 2019 // <https://blog.avocats.deloitte.fr/tribunal-digital-vers-modernisation-de-justice-commerciale/#:~:text=Le%20Tribunal%20Digital%2C%20c'est,d%3%A9placement%20du%20justiciable%20au%20tribunal.>
19. RPVA нима? Qu'est que le RPVA ? // <https://www.lebouard-avocats.fr/post/quest-que-le-rpva#:~:text=Le%20RPVA%20est%20accessible%20aux,ont%20demand%3%A9%20leur%20cl%3%A9%20RPVA.>
20. Дематериализация - объектларнинг физик, моддий шаклдан номоддий (рақамли, нақд пулсиз, энергия) шаклга ўтиши ёки уларнинг йўқ бўлиб кетиши жараёни // <https://kartaslov.ru>
21. Jean-Fabrice Brun. CMS Expert Guide to Digital Litigation in France // <https://cms.law/en/int/expert-guides/cms-expert-guide-to-digital-litigation/france>
22. Code de procédure civile. Dernière mise à jour des données de ce code: 30 novembre 2025 // [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte\\_lc/LEGITEXT000006070716/](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070716/)
23. COMMISSION EUROPÉENNE Bruxelles, le 20.7.2021 SWD(2021) 714 final DOCUMENT DE TRAVAIL DES SERVICES DE LA COMMISSION Rapport 2021 sur l'état

de droit Chapitre consacré à la situation de l'état de droit en Hongrie accompagnant le document: COMMUNICATION DE LA COMMISSION AU PARLEMENT EUROPÉEN, AU CONSEIL, AU COMITÉ ÉCONOMIQUE ET SOCIAL EUROPÉEN ET AU COMITÉ DES RÉGIONS Rapports 2021 sur l'état de droit La situation de l'état de droit dans l'Union européenne // <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/FR/TXT/PDF/?uri=CELEX:52021SC0714>

24. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland// <https://www.gesetze-im-internet.de/gg/BJNR000010949.html>

25. Zivilprozessordnung // <https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/>

26. Hans Peter Bull. Über die rechtliche einbindung der technik: Juristische Antworten auf Fragen der Technikentwicklung // Der Staat. Vol. 58, No. 1 (2019), pp. 57-100 (44 pages) // <https://www.jstor.org/stable/45106388>

27. Mamasiddiqov M.M., Islamov M. Xitoy prokuratura organlarida sun'iy intellektni joriy etish: tajriba, muammo va chaqiriqlar //J. "Odil sudlov". № 4 / 2025. – 37 b.

28. By Dr. Yannek Noah Wloch. Methoden der Künstlichen Intelligenz im Zivilprozess. Der Einsatz von Entscheidungsvorhersage- und Entscheidungsunterstützungssystemen zur Schonung justizieller Ressourcen Nomos, 1. Edition 2026, ca. 316 Pages // <https://www.nomos-shop.de/en/p/methoden-der-kuenstlichen-intelligenz-im-zivilprozess-978-3-7560-3305-8>

29. Ressemeldung des baden-württembergischen Ministeriums für Justiz und Migration vom 19.10.2022, abrufbar unter <https://www.baden-wuerttemberg.de/de/service/presse/pressemitteilung/>

30. Siehe Dazu Hess, NJW 2002, 2417; Stadler, ZZZ 115 (2002), 413; Kodek, ZZZ 125 (2012), 135.

31. Sein Gebrauch steht allen Bürgern, Unternehmen, Organisationen und Verbänden offen; die aktive Nutzung ist freiwillig. Eine passive Pflicht zur Nutzung des eBO trifft aber nach § 173 Abs. 2 ZPO neben den ohne hin bereits zur aktiven Teilnahme verpflichteten Rechtsanwälten, Behörden sowie Körperschaften und Anstalten des öffentlichen Rechts auch Notare und Gerichtsvollzieher, Steuerberater (seit 1.1.2023) sowie seit 1.1.2024 alle anderen, „in professioneller Eigenschaft am Prozess beteiligte[n] Personen, Vereinigungen und Organisationen, bei denen von einer erhöhten Zuverlässigkeit ausgegangen werden kann“. Das können etwa Gewerkschaften, Arbeitgebervereinigungen und registrierte Inkassodienstleister sein, s. RegE BT-Drucks. 19/28399, 35.

32. Digitalisierung des Zivilprozesses // [https://www.anwaltsblatt-datenbank.de/bsab/document/jzs-AnwBl\\_Online-2023-2-002-82](https://www.anwaltsblatt-datenbank.de/bsab/document/jzs-AnwBl_Online-2023-2-002-82)
33. Bund-Länder-Digitalgipfel der Justizministerinnen und Justizminister: Gemeinsame Erklärung zur Umsetzung der „Digitalsäule“ des neuen Pakts für den Rechtsstaat («Федерация ва федерал ерлар адлия вазирлари рақамли саммити: Ҳуқуқий давлат учун янги пактнинг “Рақамли устуни”ни амалга ошириш бўйича қўшма баёнот») // <https://www.mj.niedersachsen.de/startseite/aktuelles/presseinformationen/bund-lander-digitalgipfel-der-justizministerinnen-und-justizminister-gemeinsame-erklarung-zur-umsetzung-der-digitalsaule-des-neuen-pakts-fur-den-rechtsstaat-246364.html#:~:text=Digitalisierungsinitiative%20f%C3%BCr%20die%20Justiz&text=Bund%20und%20L%C3%A4nder%20hatten%20sich,zu%20200%20Millionen%20Euro%20bereitstellt.>
34. David Kuch. Recht auf den gesetzlichen Richter (Art. 101 Abs. 1 S. 2 GG).  
Published/Copyright: February 18, 2020 // <https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1515/jura-2019-2343/html#:~:text=Mitunter%20wird%20diese%20Ma%C3%9Fstabsbildung%20am%20Begriff%20der,Gesetzesversto%C3%9F%20gravierendere%20Missachtung%20der%20Zust%C3%A4ndigkeitsregeln%20anklingt%20%5B91%5D>
35. [https://systems-analysis.ru/wiki/Explainable\\_AI](https://systems-analysis.ru/wiki/Explainable_AI).